

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna
Urganch davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”
kafedra mudiri, dotsent
E-mail: anorgulatajonova005@gmail.com

UDK: 37.062

MEDIATA'LIM XORIJIY ILMIY TADQIQOTLARDA - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda mediata'lim tushunchasi, internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy xurujlar, mediata'limning shakllanishi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimiga kiritilishi, ommalashib borishi va pedagogikaning bir yo'nalishiga aylanishi haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: Mediasavodxonlik, pedagogika, tendensiya, media vosita, mediakompetentlik, media madaniyat, internet, axboriy xurujlar, kiberxavfsizlik.

Атажонова Аноргуль Джуманиязовна
Ургенчский государственный педагогический институт
Заведующий кафедрой «Методика начального образования»,
кандидат филологических наук, доцент

МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ В ЗАРУБЕЖНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В данной статье представлена информация о концепции медиаобразования в зарубежных странах, информационных атаках, осуществляемых через интернет, становлении медиаобразования, внедрении его в систему образования в развитых странах, становлении популярным и становлении одним из направлений педагогики.

Ключевые слова: Медиаграмотность, педагогика, тренд, медиа среда, медиакомпетентность, медиа культура, интернет, информационные атаки, кибербезопасность.

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna

Urgench State Pedagogical Institute

Head of the Department «Methodology of primary education»,

candidate of philological Sciences, Associate Professor

MEDIA EDUCATION IN FOREIGN SCIENTIFIC STUDIES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation: *This article provided information about the concept of mediateism in foreign countries, Information attacks carried out through the internet, the formation of mediateism, its inclusion in the educational system in developed countries, its growing popularity and its transformation into one direction of pedagogy.*

Key words: *Media literacy, pedagogy, trend, media tool, mediacompetence, media culture, internet, Information attacks, cybersecurity.*

Kirish

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasa-da, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda.

Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida axborotlashgan jamiyatga o'tish muhim vazifa, ya'ni jamiyatning barcha jabhalarida media vositalarining ta'siri dolzarb muammo sanaladi. Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasining qonunchilik yig'ilishi tavsiyasiga binoan dasturiy vositalarning ishlab chiqarilishi yoshlar va kattalarning mediakompetentligi shakllanishiga turtki bo'ladi, shuningdek, zamonaviy jamiyatning media madaniyatiga ta'sir etadigan ajralmas omil sifatida qaraladi.[2]

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda

madaniyatdir. Aynan biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Dunyoda mediakompetentlikning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tavsiyalarida alohida ta'kidlanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirish g'oyasi qo'llab-quvvatlangan.[3]

Adabiyotlar tahlili:

Mediata'lim komponenti maktab programmasiga birinchi bor kiritilganda mustaqil fan sifatida emas, balki ona tili, tarix, estetik fanlar va ekologiya fanlariga integratsiya qilingan. Mediasavodxonlik indeksiga ko'ra, Finlandiya "yolg'on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat" sifatida e'tirof etilgan va indeksda birinchi o'rinni egallagan.

Ayrim mamlakatlarda mediata'limni qo'shimcha ravishda amaliy, me'yoriy kiritish ba'zi fanlarni o'rniga yoki ular o'rtasidagi oraliq fan sifatida o'qitishga qaror qilingan, ya'ni, darsdan tashqari vaqtda maktab gazetalari va jurnallari, radio eshittirishlar va audiovizual mahsulotlari yaratiladi. Yaratish jarayonida ishtirokchilar mediadan foydalanishning turli usullari bilan bevosita tanishish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

"Mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to'g'ri savol bera olishdir" – degan edi taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkar. Bugungi global rivojlanish jarayonida internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy xurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylangan va u kiberxavfsizlik nomini olgan. Virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoning noto'g'ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko'ringan, ammo mohiyatan inson ongiga salbiy ta'sir qiluvchi axborot tarqatilishining ko'payib borayotganligi hammaga ma'lum. Bu esa, jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi bunday salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarurligidan dalolat beradi.[4]

Bugungi kunda media savodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlandiyada 1970-yildan

o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda mamlakatda "media savodxonlik" tushunchasi "mediata'lim" tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, 2002-yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil YUNESKO homiyligida "Mediata'lim" darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. Media savodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsa-da, respublikamiz umumta'lim maktablarida ham mediata'lim elementlari "Adabiyot", "Tarix", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Informatika" va "Musika" fanlari tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Fresno Tinch okeani universiteti ma'lumotiga ko'ra, "Mediasavodxonlik talabalarga ommaviy axborot vositalarining dono iste'molchilari, shuningdek, o'z ommaviy axborot vositalarining mas'uliyatli ishlab chiqaruvchilari bo'lishiga yordam beradi. Xuddi shu yo'nalishda mediasavodxonlikni o'rgatish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash turi oxir oqibat insonning ikkinchi tabiatiga aylanishi mumkin, bu ularga ulg'aygan sari ko'p sohalarda yordam beradi".

Auditoriyada talabalarining media va yangiliklar savodxonligi ustida ishlashi o'z hayotining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo'lishiga yordam beradi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasada, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi

kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda. YUNESKO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Grunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. [6]

Umuman olganda mediata'limning shakllanishi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimiga kiritilishi, ommalashib borishi va pedagogikaning bir yo'nalishiga aylanishi evolyutsiyasini tadqiq etish ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mamlakatimizda mediamadaniyatni rivojlantirishda mediata'limning o'рни va xorij tajribasini amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini bilib olish mumkin bo'ladi.

AQShda o'tgan asrning 20-yillarida mediata'limning ba'zi yo'nalishlari qaysidir darajada bor edi. Bir necha universitetlarda ixtisoslashgan fakultetlar tashkil etildi. AQShda mediata'lim bo'yicha bir necha katta assotsiatsiyalar bor. Vashington, Nyu-Meksikodagi Mediata'lim markazi (Center for Media Education), Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi (Center for Media Literacy), Shimoliy Karolinadagi "Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro" harakati, Nyu-Yorkdagi Ta'lim videomarkazi (Educational Video Center), San-Fransiskodagi "Mediasavodxonlik bo'yicha strategiya" (Strategies for Media Literacy) assotsiatsiyasi va Milliy alyans mediasan'ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) va boshqalar.[8]

Tahlillar va natijalar

Fikrimizcha, yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga urg'u berish mediata'limning asosiy mazmunini anglatishi kerak. Bunda auditoriya sust qabul qiluvchi bo'lishi kerak emas. Mediata'lim rivojlanishining asosiy bosqichi 80-90-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda ko'chki misol shiddat bilan yangi kommunikatsiya kanali sifatida internet va mobil telefon rivojlandi. Demokratizm va ommaviy kommunikatsiya qulayliklari, bu holatning davlat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan nazorat qilish qiyinligi, ularning ommaviyligi va ommabopligi insonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga ta'sir ko'rsata boshladi.

Mediata'lim nafaqat tahdidlarga javob berish va medianing imkoniyatlaridan foydalanish vositasi hisoblanadi, balki undan turli, masalan, kiberbulling, uzoqlashish, irqchilik va tanholik kabi mavzularga diqqatni qaratishga ko'mak beradi. Bundan tashqari, mediata'lim media vositasida yoshlarning ushbu tahdidlarga qarshi kurashdagi ishtirokini kengaytirishga ko'maklashadi. Axborot resurs markazlari esa bunday mavzudagi munozara va bahslar uchun qulay makon bo'lib xizmat qiladi, chunki ular, an'anaga ko'ra, zarur mediavositalar, xususan, internetga ulangan kompyuterlar va o'yin konsollari bilan jihozlangan.

Finlyandiyada har bir kishi uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari yaxshilangan va bu "Mediasavodxonlik hamma uchun" shiori ostida rivojlantirib borilmoqda. Yaxshi, mazmunli hayot tarziga hissa qo'shadigan mediasavodxonlik fuqarolik omilining muhim elementi hisoblanadi. Finlandiyada mediata'lim barcha, ya'ni rasmiy va norasmiy ta'lim muassasalari tarkibida mavjud. Mediata'lim maktabgacha ta'lim, maktab, kutubxona, yoshlar tashkilotlari, muzeylar, davlat va jamoat tashkilotlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari, milliy, hududiy va mahalliy ahamiyatga ega kompaniyalar darajasida qo'llaniladi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda Finlandiya ta'lim tizimi har tomonlama eng yetuk deb tan olingan. "Ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi tadqiqotida Yevropada Daniya va Finlandiya eng ilg'or mamlakatlar sifatida qayd etilgan bo'lib, bu mamlakatlarda mediasavodxonlik milliy siyosat bilan chambarchas va inson huquqlari hamda faol fuqarolik tushunchasi bilan puxta bog'langan.

Fin o'quvchilari hozirgacha ta'lim sifati bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Finlandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998-yil) Finlandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

1. O'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish;
2. Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish;
3. Butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

2017-yildan boshlab barcha maktablarda dars vaqtida “ruchkadan voz kechishgan” va dars jarayonida to‘liq kompyuter va planshetlardan foydalanib kelinayotgani uchun ham bo‘lsa kerak, Finlandiyada mediasavodxonlik sifatli, tizimli va keng qamrovli mediata’lim orqali targ‘ib qilinadi va qo‘llab-quvvatlanadi.

Keng qamrovli mediata’lim Finlandiyada taqdim etiladigan mediata’lim mazmuni, istiqbollari, maqsadli guruhlar va geografik taqsimoti nuqtayi nazarini anglatadi.[7]

Xulosalar

1. Mediata’lim - turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi.

2. Mediasavodxonlikni o‘rgatish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash turi oxir oqibat insonning ikkinchi tabiatiga aylanishi mumkin, bu ularga ulg‘aygan sari ko‘p sohalarda yordam beradi.

3. Auditoriyada talabalarining media va yangiliklar savodxonligi ustida ishlashi o‘z hayotining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022- 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.

3. Mavlonova R, Rahmonqulova N, “Boshlangich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. – 450 b.

4. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 2020. 9(3), 2677-2684-b.

5. Иванова Л.А. Медиа - образование как педагогический феномен / Л.А. Иванова // Сибирский педагогический журнал. 2005. № 1. С. 70-79:

6. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.02 / А. А.Журин. М., 2004. 41 с.

7. www.ziyonet.uz

8. www.lex.uz

9. Pedagog.uz